



LINGUOPOETIC CHARACTERISTICS OF SHOIRA SHAMS WORKS

Xo'janiyozova Barno Rustam qizi

Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti

Lingvistika (O'zbek tili) yo'nalishi 2-bosqich magistranti

e-mail: xujaniyozovabarno555@gmail.com

tel: +998937486078

Annotatsiya : Ushbu maqolada Shoira Shams she'rlarining lingvopoetik xususiyatlari haqida ilmiy fikrlar bayon etilgan. Ilmiy fikrlar faktlarga asoslanib yoritilgan.

Kalit so'zlar : She'riyat, lingvopetika, poetika, ijod, she'r, qo'shiq.

Abstract: This article presents scientific opinions about the linguopoetic features of Shoira Shams's works. Scientific opinions are explained based on facts.

Key words: Poetry, linguistics, poetics, creativity, folklore, poem, song.

Tildagi fonetik va leksik so'zlarni qo'llash bir qancha osonlikni va ravonlikni ta'minlaydi. Badiiy asarning eng muhim bosqichi til bo'lar ekan, biror asarni yuksak darajada ko'tara olishda uni ishlatayotgan odamni qay muloqotdan foydalanayotgani va qaysi ifoda maqsadlarni ishlatayotgani eng muhim xususiyati hisoblanadi, biror ijodkorni tilini o'rganar ekanmiz dastavval eng e'tibor berishimiz kerak bo'ladigan narsa uning tilimiz rivojiga o'z asarlari bilan qanday ta'sir o'tkazayotgani bo'ladi.

Badiiy asarning bosh unsuri so'z, umuman, til ekan, ana shu asarning chinakam san'at darajasiga ko'tara olishda uning tili, muallifning til vositalarini qay darajada qo'llay olishi asosiy omildir. Adabiyotimizda iz qoldirgan har bir ijodkor asarlarining tilini o'rganish, birinchidan, adibning mahoratini o'rganish, shu bilan birga, tilimiz rivojiga uning asarlari tili ta'sirini, tadqiqotning esa tilshunosligimiz taraqqiyotiga qay darajada ta'sir ko'rsatayotganligini belgilash ehtiyojidan kelib chiqadi.

Tabiiyki, badiiy asarni lingvopoetik tahlil qilishning bir qator tamoyillari mavjud. Badiiy matn lingvopoetikasi muammosini o'zbek tili materiallari asosida mufassal tadqiq etgan M.Yo'ldoshev lingvopoetik tahlilning quyidagi asosiy tamoyillarini ko'rsatadi:

- ~ shakl va mazmun birligi asosida yondashuv;
- ~ makon va zamon birligidan kelib chiqish;
- ~ umumxalq tili va adabiy til munosbati asosida baholash;
- ~ badiiy matnga badiiy-estetik yaxlitlik sifatida yondashuv;
- ~ badiiy matnda poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash;
- ~ badiiy matndagi eksplitsitlik va implitsitlik nisbatini aniqlash;
- ~ badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash.



Lingvopoetika lingvistik poetikaning qisqargan shakli bo'lib, badiiy asarlarda qo'llanilgan lisoniy birliklar: fonetik, morfemik, leksik va boshqalarning badiiyyestetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o'rganadi. Boshqacha aytganda, lingvopoetika tilshunoslikning badiiy nutqni o'rganuvchi bo'limidir.

O'zbek tilshunosligida omonimlar masalasining o'rganilishi uzoq tarixga borib taqaladi. Omonimlarni o'rganish Alisher Navoiy nomi bilan bog'lanadi. Bunda Navoiy omonimlar haqida maxsus termin qo'llamay, masalani misollar yordamida tushuntiradi. Navoiyning izdoshi bo'lmish g'azalnavis Shoir Shams she'riyatida omonim so'zlar ham, ulardan tashkil topuvchi omonimik qatorlar ham katta miqdorni tashkil etadi.

Ol yanog'ing yodida oromi yo'qdir ko'zlarim,

Ulki yoqut kosaga baxshanda erdi, bilmading.

Ol-qizil yanoq. Ol- fe'l olmoq. Aslida ijodkorning asl ijodkor ekanligi ham, uning so'zlarni chertib tanlashi va ularni mahorat bilan ash'orning eng zarur qismida qo'llashiga qarab baholanadi va belgilanadi. Bu ijod mahsulida ham shoir oromini yo'qotgan ko'zlarning yor vasliga naqadar mushtoq ekanligi mahorat bilan tasvirlanadi. Qizillikka burkangan go'zal yanoqning battarroq qizg'ish rangga kirayotgani oshiq bag'rini o'rtaydi, oshiq borini bergan ishqning javobsizligidan anduh chekib, "bilmading" deya go'zalni ayblaydi.

Ko'zingda o'ynaydi sirli hayajon,

Yuzingdan lolarang ibo oqadi.

Qarshingda vaslingga intizor bir jon

Ko'zingdan ko'zlarin uzmay boqadi.

Oy ham havas qilar bu juft yurakka,

Sukunat bag'riga to'kilar hasrat.

Ne ko'yga solmaysan ahli odamni.

Muhabbat, muhabbat, muhabbat...

[“Javrikim jondin o'tar” 191-bet]

Mazkur she'rda muhabbat timsoli tavsiflanadi. Muhabbat juda nozik va mavhum tushuncha bo'lishiga qaramasdan butun bir insoniyatning qalbi unga tashnadir. Muhabbat shu qadar qudratli kuchga egaki, u hatto tosh qalblarni erita oladi. Balki shundandir, shoir muhabbatga to'ladi, o'zini unga tortiq etadi va shu muhabbat tufayli ko'zlari hayajondan porlaydi. Bu juftlikka oy ham havas qilishi aytiladi. Aytdilarki, muhabbat insonni har ko'yga solishi mumkin. Hattoki, gapirtirmas holatga ham solishi mumkin. Muhabbat ne'mati mana shunday sehrli qudratga ega.

Shoir she'rlarining lug'aviy tarkibi juda boy va rang-barang bo'lib, ularda so'zlarning o'rinsiz takrori uchramaydi. Bunga esa shoir aynan sinonim so'zlardan mohirona foydalanganligi tufayli erishgan. She'riyatda sinonimlarning bu kabi to'g'ri va o'rinli ishlatilishi asar qimmatini oshirishga xizmat qilgan. Shoiraning sinonimlarni o'rinli qo'llashda quyidagi maqsadlar ham to'laqonli yuzaga chiqqan:



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



- Badiiy ifodaning ta'sirchanligini oshirish;
- So'zlarni takror ishlatishdan qochish;
- Uslubning ravonligi;
- Fikrni aniq, lo'nda, ixcham ifodalash;
- O'zbek tilining lug'at tarkibi boy ekanini namoyish etish;
- Misralarni vaznga solish, qofiya hosil qilish, turli badiiy san'atlarni yuzaga keltirish va hokazo.

Gulday go'zal, muzday sovuq dil,
Parvo qilmas ko'z yoshlarimga.
Bir kun seni eritaman, bil,
Solib diydor otashlarimga.

Tosh qalbingdan bir gul undirib,
Qahring yulib, mehrim beraman.
Ketar chog'im ortga qayrilib,
Intizor ko'zlaring ko'raman.

Ushbu baytda umid timsoli keng va batafsil yoritiladi. Bunda umid shunday narsaki, biror narsadan voz kechgan taqdirda ham inson yana shu o'tgan narsaga qaytib yana umid bilan ortga boqadi. Shu sababli ham she'rda tosh ko'nglingni bir kuni eritaman deydi. Bir kuni tosh qalbing gul ochadi. Qahringni bir kuni mehrim ila to'ldiraman va ketar chog'imda baribir bir bora ortimga qayrilib boqaman demoqchi ijodkor.

Haqiqiy muhabbatning otashin alangasi chulg'ab olgan ijodkor qalbi, unda charsillab yonadi. Bu yonish uni halok etmaydi, aksincha yanada hayotga, yashashga undaydi. Zero, dunyoni muhabbat qutqarishi haqidagi bitiklar hamma zamonlarda ham yangragan kalomdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ehtirosli, g'am va quvonch chorraxasida qolishimizga undaydigan, hayotga umid bilan boqishga chorlaydigan go'zal she'rlar muallifi va is'tedodli ijodkorlardan biri hisoblangan Shoir Shams o'z ichki ruhiy kechinmalarini qog'ozga to'kadi va obrazlar vositasida ichki tug'yonlarini ifodalaydi. Ijodkor she'rlarida har bir obraznihiyotda muhim rol o'ynagan, badiiy ta'sviriy vositalar ularga ko'rk bag'ishlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Javrikim jondin o'tar" "Quvonchbek-Mashhura" MCHJ nashriyoti Urganch 2018-yil
2. A.Hojiyev. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. - Toshkent. 1974-yil.
3. Yo'ldoshev M.Badiiy matn lingvopoetikasi. Toshkent-Fan.2008-yil